



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(1)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 284 sahifa,  
1-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

**Karimova E'zoza Gapirzhanovna** – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

**Shoumarov G. B.** – Doctor of Psychological Sciences, Academician

**Qirg'izboyev A. K.** – Doctor of Historical Sciences, Professor

**Jamoldinova O.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Sharipov Sh.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Shermuhhammadov B.Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Ma'murov B.B.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Madraximova F.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Kalonov M.B.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Nabiyev D.X.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Koldoshev K. M.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Ikramxanova F.I.** – Doctor of Philological Sciences, Professor

**Ismagilova F.S.** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

**Stoyuxina N.Yu.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

**Magauova A.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

**Rejep O'zyurek** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

**Wookyu Cha** – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

**Polonnikov A.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

**Mizayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Baybayeva M.X.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Muxsiyeva A.T.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Aliyev B.** – Doctor of philosophy, professor

**Abdullayeva N. Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

**Doniyorov S. M.** – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

**Gafurov D. O.** – Doctor of Philosophy (PhD)

**Shomurodov R.T.** – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

**Mirzayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

**Jalilova S.X.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Bafayev M.M.** – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Usmonova D.I.** – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

**Saifnazarov I.** – Doctor of philosophy, professor

**Nematov Sh.E.** – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

**Tillashayxova X.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva F.I.** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva D.B.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

**Tangriyev A.T.** – is a professor of Tashkent State University of Economics

**Ashurov R. R.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

**Panjiyev M. A.** – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

**Khudaiberganov N. A.** – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
<i>Usmonova Muattar Bahadirjonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni .....	14
<i>Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari .....	17
<i>Dilsora Shodmonova</i>	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях .....	24
<i>Истамова Нигора Азимжановна</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
<i>Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi</i>	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
<i>Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich</i>	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
<i>Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li</i>	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
<i>Artikov Xayrulla Baxtiyarovich</i>	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline .....	44
<i>Lola Mannobova</i>	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries .....	48
<i>Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları .....	51
<i>Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</i>	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari .....	55
<i>Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi</i>	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni .....	59
<i>Abdunazarov Abdumutal Olimovich</i>	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari .....	64
<i>Alimova Gulrux Farhod qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari .....	70
<i>Axtamova Mohinur O'tkir qizi</i>	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni .....	74
<i>Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'liqinova Muxlisaxon Jamshid qizi</i>	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida) .....	78
<i>G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi</i>	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi .....	82
<i>Hamraqulova Durdona Dilshod qizi</i>	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi .....	87
<i>Hikmatova Yulduz Nuritdinovna</i>	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari .....	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli .....	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida) .....	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish .....	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish .....	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari .....	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari .....	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar .....	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari... ..	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi .....	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari .....	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli .....	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari .....	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi .....	153
<i>Rahimova Sarvinoz Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati .....	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish .....	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida turli materialdan amaliy ishlarni tashkil qilish metodikasi .....	195
<i>Sanakulov Xamrakul Rizakulovich, O'roqova Nigina Botirjon qizi, Xoliqulova Ozoda Shuxratovna</i>	
Modern Teaching Methods in English Language Learning.....	199
<i>Sarvinoz Abdulhakimova</i>	
Erkin Vohidov ijodining o'rganilishi .....	202
<i>Shahnoza Muhammadiyeva</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida nutqiy faoliyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari .....	205
<i>Shopulatova Nasiba Umirovna</i>	
Yuqori intensivlikdagi atsiklik yuklamalar ta'sirida futbolchilar organizmi funksional holatining yoshga oid xususiyatlari.....	208
<i>Shukurova Sayyora Sa'dullaevna, Kadirov Abdurashid</i>	
Talabalarda badiiy did va estetik tarbiyasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida .....	211
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
The Role of Authentic Materials in Teaching English for Specific Purposes: Implications for Tourism Students.....	215
<i>Toshmamatova Marjona Olimjon kizi</i>	
Neyrokognitiv rivojlanish va bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik .....	220
<i>Toshpo'latova Mahina Farxod qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda terminologik tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari .....	224
<i>Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi</i>	
Artistic Pedagogy as a Basis for Developing Spiritual-Communicative Culture in Student Youth: Pedagogical Foundations .....	228
<i>Umarova Malika Khisabidinovna, Orifjonova Kamolabonu Kozimbek qizi</i>	
Pragmatic Competence and Cultural Adaptation in EFL Contexts: Challenges and Pedagogical Implications.....	232
<i>Veronica Khatamova</i>	
Ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda morfologiya o'qitish muammosi .....	236
<i>Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi</i>	
Innovatsion yondashuv asosida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini o'qitish metodikasi muammo sifatida .....	240
<i>Zaxro Yo'ldashovna Shanasirova</i>	
Interaktiv topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini individuallashtirish .....	246
<i>Nishonova Gulchehra Ravshanjon qizi</i>	
The Role of Project-Based Learning and Artificial Intelligence Technologies in Enhancing Foreign Language Students' Academic Achievement and Motivation.....	250
<i>Olimov Sh. Sh., Zaripov K. Ya.</i>	
Mechanisms for Assessing Academic Achievements in the Finnish Education System and the Possibility of their Adaptation In Schools In Uzbekistan .....	254
<i>Saytbekova Svetlana Saylaubaevna</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish .....	257
<i>Xoldorova Mashxura G'ulomovna</i>	
Finlyandiya ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mexanizmlari va ularni O'zbekiston maktablarida qo'llash istiqbollari.....	260
<i>Xudaybergenova Zuxra Isakovna</i>	
Jadidchilik harakati va uning pedagogik-ijtimoiy mohiyati hamda tamoyillari .....	263
<i>Yusupov Ma'mur Ma'rufovich</i>	
Проблемы нравственного воспитания личности в произведениях В. Распутина.....	269
<i>Рахимова Шахзода Равшановна</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik omillari .....	273
<i>Imamova Nasiba Xurramovna</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	276
<a href="#">Xidirov Faxriddin Fozilovich</a>	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды .....	280
<a href="#">Рахмонова Нилуфар Уткир кизи</a>	



# DUAL TA'LIMDA OLIY TA'LIM VA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI O'RTASIDAGI HAMKORLIKNING MAZMUNI

Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna

Namangan davlat pedagogika instituti,  
 Maktabgacha ta'lim kafedrasida dotsenti

Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi

Namangan davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada dual ta'lim sharoitida oliy ta'lim muassasalari hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning pedagogik mazmuni, tashkiliy asoslari va amaliy ahamiyati yoritiladi. Dual ta'lim bo'lajak tarbiyachilarning nazariy bilimlarini real kasbiy faoliyat bilan uzviy bog'lash, ularning amaliy ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali model sifatida tahlil qilinadi. Maqolada oliy ta'lim muassasalari va maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamkorligining asosiy yo'nalishlari, jumladan, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish, mentorlik faoliyati, pedagogik kuzatuv, kasbiy moslashuv hamda ta'lim sifati monitoringi masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, dual ta'lim jarayonida hamkorlik mazmuni nafaqat o'quv-amaliy faoliyatni tashkil etish, balki bo'lajak mutaxassisning kasbiy madaniyati, kommunikativ kompetensiyasi va ijodiy yondashuvini shakllantirish bilan ham bog'liqligi asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** dual ta'lim, oliy ta'lim, maktabgacha ta'lim tashkiloti, hamkorlik, bo'lajak tarbiyachi, kasbiy kompetensiya, amaliy tayyorgarlik, mentorlik, pedagogik amaliyot.

**Abstract:** This article discusses the pedagogical content, organizational foundations, and practical significance of cooperation between higher education institutions and preschool educational organizations within the framework of dual education. Dual education is analyzed as an effective model for integrating the theoretical knowledge of future preschool educators with real professional practice. The article focuses on the main areas of cooperation, including the organization of practical training, mentoring, pedagogical observation, professional adaptation, and quality monitoring of specialist training. It is emphasized that cooperation in dual education is not limited to organizing educational and practical activities but is also closely connected with the development of professional culture, communicative competence, and a creative approach among future preschool education specialists.

**Key words:** dual education, higher education, preschool educational organization, cooperation, future preschool educator, professional competence, practical training, mentoring, pedagogical practice.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются педагогическое содержание, организационные основы и практическое значение сотрудничества между высшими образовательными учреждениями и дошкольными образовательными организациями в условиях дуального образования. Дуальное образование анализируется как эффективная модель, обеспечивающая взаимосвязь теоретической подготовки будущих воспитателей с реальной профессиональной деятельностью. Особое внимание уделяется основным направлениям сотрудничества, таким как организация практических занятий, наставничество, педагогическое наблюдение, профессиональная адаптация и мониторинг качества подготовки специалистов. Обосновывается, что содержание сотрудничества в условиях дуального образования связано не только с организацией учебно-практической деятельности, но и с формированием профессиональной культуры, коммуникативной компетентности и творческого подхода будущих специалистов дошкольного образования.

**Ключевые слова:** дуальное образование, высшее образование, дошкольная образовательная организация, сотрудничество, будущий воспитатель, профессиональная компетентность, практическая подготовка, наставничество, педагогическая практика.

## KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga real sharoitda tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni bolalar bilan ishlash jarayoniga amaliy jihatdan puxta tayyorlash ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, dual ta'lim modeli oliy ta'lim muassasalari va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqadigan samarali pedagogik yondashuv sifatida namoyon bo'lmoqda.

Dual ta'limning asosiy mazmuni ta'lim oluvchining nazariy bilimlarni oliy ta'lim muassasasida egallashi, amaliy ko'nikmalarni esa bevosita ishlab chiqarish yoki kasbiy faoliyat muhitida shakllantirishiga asoslanadi. Maktabgacha ta'lim yo'nalishida bu jarayon bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar bilan ishlash, mashg'ulotlarni tashkil etish, tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish, ota-onalar bilan muloqot qilish va pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish kabi ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunda oliy ta'lim muassasasi nazariy-metodik tayyorgarlikni ta'minlansa, maktabgacha ta'lim tashkiloti real amaliy muhit vazifasini bajaradi. Oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik dual ta'limning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u faqatgina talabalarni amaliyotga yuborish bilan cheklanmaydi. Mazkur hamkorlik o'quv dasturlarini amaliyot bilan bog'lash, malakali mentor-tarbiyachilar faoliyatini yo'lga qo'yish, talabalar faoliyatini tizimli ravishda kuzatish, ularning kasbiy o'sishini baholash hamda ta'lim jarayonida uchraydigan muammolarni birgalikda hal etishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, hamkorlik jarayonida oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari va maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari o'rtasida tajriba almashinuvi kuchayadi, bu esa ta'lim mazmunining amaliy ehtiyojlarga moslashuviga imkon yaratadi.

Maktabgacha ta'lim sohasida dual ta'limni samarali tashkil etish bo'lajak tarbiyachining kasbiy shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Chunki tarbiyachilik kasbi nafaqat nazariy bilimlarni, balki bolalar psixologiyasini tushunish, individual yondashuvni qo'llash, muloqot madaniyatiga ega bo'lish, ijodiy va tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil etish kabi ko'plab amaliy kompetensiyalarni ham talab qiladi. Bu kompetensiyalar esa faqat auditoriya mashg'ulotlari orqali emas, balki real pedagogik muhitda, tajribali mutaxassislar rahbarligida shakllanadi. Shu sababli dual ta'lim sharoitida oliy ta'lim muassasalari va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik mazmunini ilmiy-pedagogik jihatdan o'rganish muhim hisoblanadi. Bunday hamkorlikning to'g'ri tashkil etilishi bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytiradi, ularning amaliy faoliyatga moslashuvini tezlashtiradi hamda maktabgacha ta'lim tizimi uchun raqobatbardosh, tashabbuskor va zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ega mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Mazkur maqolada dual ta'limda oliy ta'lim muassasalari va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni, uning pedagogik imkoniyatlari va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim muassasalari va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik dual ta'lim jarayonining amaliy samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Mazkur hamkorlik bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda nazariy bilimlarni real pedagogik jarayon bilan bog'lash, talabalarni amaliy muhitga bosqichma-bosqich olib kirish hamda ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim yo'nalishida hamkorlikning mazmuni amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish, mentorlik faoliyatini yo'lga qo'yish, pedagogik kuzatuvni amalga oshirish, kasbiy moslashuvni ta'minlash va ta'lim sifati monitoringini olib borish kabi yo'nalishlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Dual ta'lim sharoitida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish oliy ta'lim muassasalari va maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamkorligining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Amaliy mashg'ulotlar talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga yaqinlashtiradi, ularda tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish, bolalar bilan muloqot qilish, mashg'ulotlar o'tkazish, o'yin faoliyatini tashkil etish, kuzatuv va tahlil olib borish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bunda oliy ta'lim muassasasi talabaga nazariy-metodik asoslarni beradi, maktabgacha ta'lim tashkiloti esa ushbu bilimlarni amaliyotda sinab ko'rish imkoniyatini yaratadi.

Amaliy mashg'ulotlar faqat kuzatuv yoki tanishuv amaliyoti bilan cheklanmasligi lozim. Ular bosqichma-bosqich tashkil etilib, dastlab talabalar tarbiyachi faoliyatini kuzatadilar, keyingi bosqichda kichik topshiriqlarni bajaradilar, so'ngra mustaqil ravishda mashg'ulotlarning ayrim qismlarini olib boradilar. Bunday yondashuv talabada kasbiy ishonchni kuchaytiradi, pedagogik vaziyatlarga moslashish qobiliyatini shakllantiradi. Masalan, talaba dastlab ertalabki qabul jarayonini kuzatishi, keyin bolalar bilan didaktik o'yin o'tkazishi, undan so'ng esa tarbiyaviy mashg'ulotni mustaqil tashkil etishi mumkin. Bu jarayonda har bir amaliy harakat oliy ta'limdagi nazariy bilimlar bilan bog'lab boriladi. Hamkorlikning yana bir muhim yo'nalishi mentorlik faoliyatidir. Mentorlik dual ta'lim jarayonida tajribali tarbiyachi yoki pedagogning talabaga kasbiy yo'l-yo'riq ko'rsatishi, uning amaliy faoliyatini kuzatishi, xatolarini tahlil qilishi va kasbiy rivojlanishiga ko'maklashishidan iborat. Mentor talaba uchun oddiy nazoratchi emas, balki kasbiy namunadir. U talabaning bolalar bilan muloqot qilish madaniyati, mashg'ulotlarni tashkil etish uslubi, guruhi boshqarish, ota-onalar bilan ishlash va hujjatlarni yuritish bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Mentorlik faoliyatining samaradorligi oliy ta'lim muassasasi va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi vazifalarning aniq taqsimlanishiga bog'liq. Oliy ta'lim o'qituvchisi talabaning ilmiy-metodik tayyorgarligini nazorat qilsa, mentor-tarbiyachi uning amaliy faoliyatdagi o'sishini kuzatadi. Mentor talabaga tayyor yechimlarni berish bilan cheklanmay, uni mustaqil fikrlashga, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishga, bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda qarorlar qabul qilishga yo'naltiradi. Shu jihatdan mentorlik faoliyati bo'lajak tarbiyachining kasbiy identifikatsiyasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagogik kuzatuv dual ta'limdagi hamkorlikning muhim tarkibiy qismidir. Pedagogik kuzatuv orqali talabalar maktabgacha ta'lim tashkilotidagi real tarbiyaviy jarayonni o'rganadi, bolalarning xulq-atvori, muloqoti, qiziqishlari, rivojlanish darajasi va guruhdagi ijtimoiy munosabatlarni tahlil qiladi. Bu jarayon talabani pedagogik tafakkurini rivojlantiradi, unda vaziyatni ko'ra olish, sabab va oqibatni aniqlash hamda to'g'ri metodik qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Pedagogik kuzatuv maqsadli va tizimli tashkil etilishi zarur. Talaba shunchaki jarayonni tomosha qilmaydi, balki oldindan belgilangan mezonlar asosida kuzatuv olib boradi. Masalan, bolalarning mashg'ulotdagi faolligi, tarbiyachining savol berish usullari, o'yin faoliyatida bolalarning ishtiroki, nutqiy faolligi, ijtimoiy moslashuvi yoki emotsional holati kabi jihatlar kuzatiladi. Kuzatuv natijalari keyinchalik oliy ta'lim muassasasidagi seminar va amaliy mashg'ulotlarda tahlil qilinadi. Bu esa nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytiradi.

Kasbiy moslashuv yo'nalishi bo'lajak tarbiyachining maktabgacha ta'lim muhitiga ruhiy, pedagogik va metodik jihatdan kirib borishini anglatadi. Talaba oliy ta'limda nazariy bilimlarni egallagan bo'lsa-da, real ish jarayonida turli pedagogik vaziyatlar, bolalarning individual xususiyatlari, ota-onalar bilan muloqot, jamoa bilan ishlash va hujjatlarni yuritish kabi masalalarga duch keladi. Dual ta'limdagi hamkorlik aynan shu jarayonni yengillashtirishga xizmat qiladi. Kasbiy moslashuv jarayonida talaba asta-sekin tarbiyachi kasbining mazmunini chuqurroq anglay boshlaydi. U pedagogik faoliyatning nafaqat mashg'ulot o'tishdan, balki bolalarning rivojlanishini kuzatish, tarbiyaviy muhit yaratish, xavfsizlikni ta'minlash, ota-onalar bilan hamkorlik qilish va jamoada ishlashdan iborat ekanligini amaliy tajriba orqali tushunadi. Bu jarayonda maktabgacha ta'lim tashkilotining sog'lom psixologik muhiti, mentoring qo'llab-quvvatlashi va oliy ta'lim o'qituvchisining metodik rahbarligi muhim ahamiyatga ega.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'lim sifati monitoringi oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamkorligini takomillashtirishga xizmat qiluvchi muhim yo'nalishlardan biridir. Monitoring orqali talabalarning amaliy tayyorgarligi holati, ularning kasbiy kompetensiyalari rivojlanish darajasi, amaliy mashg'ulotlarning samaradorligi va mentorlik faoliyatining natijalari muntazam baholab boriladi. Bunda baholash faqat yakuniy natijaga emas, balki talabani rivojlanish dinamikasiga ham qaratilishi lozim.

Ta'lim sifati monitoringida bir nechta mezonlardan foydalanish mumkin. Jumladan, talabani mashg'ulotni rejalashtirish qobiliyati, bolalar bilan muloqot madaniyati, tarbiyaviy metodlardan foydalanishi, ijodiy yondashuvi, pedagogik muammolarni hal qilish ko'nikmasi, refleksiya yuritish darajasi va kasbiy mas'uliyati baholanadi. Bu jarayonda oliy ta'lim o'qituvchisi, mentor-tarbiyachi va talabani o'zi ishtirok etishi maqsadga muvofiqdir. O'z-o'zini baholash va refleksiya talabani kasbiy o'sishini anglashga yordam beradi.

Monitoring natijalari hamkorlikni yanada samarali tashkil etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Agar talabalar bolalar bilan muloqot qilishda, mashg'ulotni boshqarishda yoki metodik materiallardan foydalanishda muammolar aniqlansa, oliy ta'lim muassasasi o'quv jarayoniga tegishli o'zgartirishlar kiritishi mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkiloti esa amaliyot sharoitlarini takomillashtiradi, mentorlik faoliyatini kuchaytiradi va talabalar uchun qulay o'quv-amaliy muhit yaratadi. Shu tarzda monitoring nazorat vositasi bo'lish bilan birga, ta'lim sifati oshirish mexanizmi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Dual ta'lim jarayonida oliy ta'lim muassasalari va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik faqat o'quv-amaliy faoliyatni tashkil etish bilan cheklanmaydi. Ushbu hamkorlik bo'lajak mutaxassisning kasbiy shakllanishiga kompleks ta'sir ko'rsatib, unda kasbiy madaniyat, kommunikativ kompetensiya, pedagogik etikaga rioya qilish, ijodiy fikrlash hamda innovatsion yondashuvlarni qo'llash kabi muhim sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi pedagog uchun nafaqat nazariy bilim va metodik tayyorgarlik, balki bolalar bilan samarali muloqot qila olish, tarbiyaviy vaziyatlarni to'g'ri boshqarish va pedagogik jarayonga ijodiy yondashish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy madaniyat pedagogning kasbiy faoliyatni yuksak mas'uliyat, axloqiy qadriyatlar va pedagogik me'yorlar asosida tashkil etish qobiliyatini ifodalaydi. Dual ta'lim sharoitida talabalar real pedagogik muhitga kirib borish orqali kasbiy madaniyatning amaliy ko'rinishlarini bevosita kuzatadi va o'zlashtiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi pedagoglarning bolalar, ota-onalar va hamkasblar bilan munosabati, nutq madaniyati, kiyinish odobi, hujjatlar bilan ishlash tartibi, vaqtni boshqarish hamda jamoa bilan ishlash uslubi talabalar uchun kasbiy namuna vazifasini bajaradi. Talaba auditoriyada pedagogik etika yoki kasbiy kompetensiya haqida nazariy ma'lumot olishi mumkin, biroq ularning mazmunini to'liq anglash amaliy faoliyat jarayonida yuz beradi. Masalan, tarbiyachining bolaga murojaat qilish ohangi, nizoli vaziyatlarda vazminlikni saqlashi, ota-onalar bilan muloyim va professional muloqot olib borishi talabani kasbiy madaniyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu jihatdan, dual ta'lim muhitidagi hamkorlik kasbiy qadriyatlarning tabiiy pedagogik jarayonda o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Kommunikativ kompetensiya ham maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi mutaxassis tayyorlashning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash jarayonida pedagogning nutqi sodda, ravon, tushunarli va ta'sirchan bo'lishi talab etiladi. Shu bilan birga, pedagog ota-onalar, hamkasblar va rahbariyat bilan ham samarali muloqot qila olishi lozim. Dual ta'lim jarayonida talaba real kommunikativ vaziyatlarda ishtirok etish orqali ushbu ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Talabalar bolalar bilan o'yin tashkil etish, savol-javob olib borish, ertak aytish, mashg'ulotni tushuntirish yoki bolalarni rag'batlantirish jarayonida kommunikativ kompetensiyaning turli jihatlarini amalda qo'llaydilar. Dastlab ayrim talabalar bolalar bilan muloqot qilishda ikkilanishi yoki nutqiy qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, ammo amaliy muhitdagi doimiy ishtirok ularning kommunikativ faolligini oshiradi. Ayniqsa, mentor-tarbiyachining tavsiyalari va pedagogik kuzatuv asosidagi tahlillar talabaga o'z nutqidagi kamchiliklarni anglash hamda ularni bartaraf etishga yordam beradi. Kommunikativ kompetensiyaning yana bir muhim jihati ota-onalar bilan ishlash jarayonida namoyon bo'ladi. Dual ta'lim orqali talabalar ota-onalar yig'ilishlari, individual suhbatlar va tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etib, pedagogik muloqot madaniyatini o'rganadilar. Bu esa bo'lajak mutaxassisning kelgusidagi kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki maktabgacha ta'lim tizimida pedagogning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning kommunikativ kompetensiyasiga bog'liq bo'ladi.

Dual ta'lim hamkorligining muhim jihatlaridan biri bo'lajak mutaxassisda ijodiy yondashuvni shakllantirishdir. Maktabgacha ta'lim jarayonida har bir mashg'ulot, o'yin yoki tarbiyaviy faoliyat bolalarning yosh va individual xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilishi zarur. Shu sababli, pedagog doimo yangicha usullarni izlashga, qiziqarli didaktik vositalardan foydalanishga va bolalarning qiziqishini uyg'ota oladigan pedagogik yechimlarni ishlab chiqishga intiladi. Dual ta'lim muhiti talabaning ijodiy imkoniyatlarini namoyon etishi uchun qulay sharoit yaratadi. Talaba nazariy bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llash jarayonida turli pedagogik vaziyatlarga duch keladi va ularga mos yechim topishga harakat qiladi. Masalan, bolalarning e'tiborini jamlash qiyin bo'lgan holatda o'yin elementlarini qo'llashi, oddiy didaktik materiallarni ijodiy tarzda tayyorlashi yoki mashg'ulotni interfaol shaklda tashkil etishi uning ijodiy yondashuvini rivojlantiradi. Ijodiy yondashuvning shakllanishida mentor-tarbiyachining tajribasi ham katta ahamiyatga ega.

Tajribali pedagoglarning noan'anaviy metodlardan foydalanishi, mashg'ulotlarni qiziqarli tashkil etishi, bolalarning qiziqishlariga mos metodik vositalarni tanlashi talabaga ijodiy ilhom beradi. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasasida o'rganilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar amaliyot jarayonida sinovdan o'tkaziladi va boyitiladi. Dual ta'lim jarayonidagi hamkorlik bo'lajak mutaxassisning reflektiv ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Refleksiya pedagogning o'z faoliyatini tahlil qilishi, yutuq va kamchiliklarini aniqlashi, keyingi faoliyatini takomillashtirishga intilishidir. Talabalar amaliy mashg'ulotlardan so'ng o'z faoliyatini tahlil qiladilar, mentorlar va o'qituvchilar bilan muhokamalar olib boradilar hamda o'z ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantiradilar. Bu esa ularning kasbiy o'sishi va pedagogik mahoratini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, dual ta'limdagi hamkorlik bo'lajak mutaxassisda innovatsion fikrlashni rivojlantirishga ham yordam beradi. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimi pedagogdan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, interfaol metodlarni qo'llash, bolalarning individual rivojlanishiga mos metodik yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Talaba real pedagogik muhitda ushbu texnologiyalar va metodlarni qo'llash imkoniyatiga ega bo'lib, bu uning zamonaviy pedagog sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, dual ta'limda oliy ta'lim muassasalari va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga puxta tayyorlashning muhim pedagogik sharti hisoblanadi. Mazkur hamkorlik nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, talabalarni real pedagogik muhitga moslashtirish hamda ularning kasbiy kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Dual ta'lim jarayonida amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etish, mentorlik faoliyatini yo'lga qo'yish, pedagogik kuzatuv olib borish, kasbiy moslashuvni ta'minlash va ta'lim sifati monitoringini amalga oshirish hamkorlikning asosiy yo'nalishlari sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayonlarda oliy ta'lim muassasasi nazariy-metodik tayyorgarlikni ta'minlasa, maktabgacha ta'lim tashkiloti talabalar uchun real amaliy maydon vazifasini bajaradi.

Shuningdek, dual ta'limdagi hamkorlik bo'lajak mutaxassisning kasbiy madaniyati, kommunikativ kompetensiyasi, ijodiy yondashuvi va reflektiv fikrlashini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Talabalar real tarbiyaviy jarayonlarda ishtirok etish orqali bolalar bilan ishlash, ota-onalar bilan muloqot qilish, pedagogik vaziyatlarni tahlil etish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Demak, oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi uzviy hamkorlik dual ta'lim sifatini oshirish, bo'lajak tarbiyachilarning amaliy tayyorgarligini kuchaytirish hamda maktabgacha ta'lim tizimi uchun zamonaviy, tashabbuskor va raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida. – 2025. – URL: <https://natlex.ilo.org/dyn/natlex2/natlex2/files/download/118029/UZB-118029.pdf> (Natlex).
2. UNESCO. Investing in Work-Based Learning. – Paris: UNESCO, 2017. – URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000260677> (UNESCO).
3. OECD. Vocational Education and Training (VET). – URL: <https://www.oecd.org/en/topics/sub-issues/vocational-education-and-training-vet.html> (OECD).
4. European Commission. Engaging Employers in Work-Based Learning and Apprenticeships. – 2022. – URL: [https://european-social-fund-plus.ec.europa.eu/system/files/2022-06/KE-07-22-424-EN-N%20Employers%20in%20Apprenticeships%20FINAL\\_16.6.22.pdf](https://european-social-fund-plus.ec.europa.eu/system/files/2022-06/KE-07-22-424-EN-N%20Employers%20in%20Apprenticeships%20FINAL_16.6.22.pdf) (European Social Fund Plus).
5. Martínez-Izquierdo L., Torres-Sánchez M., Salazar-Noguera J. Dual Vocational Education and Training and Policy Transfer in the European Union Policy: The Case of Work-Based Learning and Apprenticeships // Cogent Education. – 2022. – Vol. 9. – URL: <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/2331186X.2022.2154496> (Taylor & Francis Online).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.